



THE NEED TO IMPROVE THE MORAL IDEAL IN THE SPIRITUAL WORLD OF YOUTH

Feruza Yusupova

*Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
Navoi State Mining and Technological University*

Navoi, Uzbekistan

e-mail: usupovaferuza35@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, moral thinking, moral ideal, global, new spiritual space.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: This article presents scientific conclusions that if the moral ideal is improved in the spiritual existence of young people, they will become people who are aware of their national identity, deeply understand world events, and keep up with the times. It is noted that such youth cannot be influenced by any ideological, extremist, and "mass" pernicious ideas and senseless appeals spread on colorful papers and slogans.

YOSHLARNING MA'NAVIY BORLIG'IDA AXLOQIY IDEALNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI

Feruza Yusupova

Dotsent v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Navoiy, O'zbekiston

E-mail: usupovaferuza35@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yoshlar, axloqiy tafakkur, axloqiy ideal, global, yangi ma'naviy makon.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ma'naviy borlig'ida axloqiy ideal takomillashtirilsa, ular milliy o'zligini anglaydigan, dunyo voqealarini teran tushunadigan, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan shaxslar bo'lib yetishadilar, degan ilmiy xulosalar keltirilgan. Bunday shaxslarga har qanday aqidaparast, ekstremist va "ommaviy madaniyat" tarzida chiroylı qog'ozlarga, bejirim shiorlarga burkab beriladigan g'arazli g'oyalar, bema'ni da'vatlar ta'sir eta olmasligi ta'kidlangan.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НРАВСТВЕННОГО ИДЕАЛА В ДУХОВНОМ СУЩЕСТВОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Феруза Юсупова

*И.о. доцента, доктор философии (PhD) по философским наукам
Навоийский государственный горно-технологический университет
Навои, Узбекистан
e-mail: usupovaferuza35@gmail.com*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежь, нравственное мышление, нравственный идеал, глобальный, новое духовное пространство.

Аннотация: В данной статье представлены научные выводы о том, что, если в духовном существовании молодых людей будет усовершенствован нравственный идеал, они станут людьми, осознающими свою национальную самобытность, глубоко понимающими мировые события, идущими в ногу со временем. Отмечено, что на такую молодежь не могут влиять никакие идеологические, экстремистские и «массовые» пагубные идеи и бесмысленные призывы, распространяемые на красочных бумагах и лозунгах.

Kirish. Hozirgi global ijtimoiy-madaniy rivojlanish davrida barkamol avlod tarbiyasi va ma’naviy yuksalish talablari o‘ziga xos axloqiy ideal tizimining yaratilish zaruriyatini qo‘ymoqda. Axloqiy idealning yuksak tamoyillari talablari asosida timsolli, namuna, ibratli, o‘rnak bo‘ladigan yuksak ma’naviy-axloqiy tizimining yaratilishi hozirgi ommaviy, madaniy siljishlarni oldini olishga kafolatdir. An’anaviy tarzda “axloqiy ideal mavjud ijtimoiy munosabatlar, tarixiy-madaniy muhit va ma’naviy paradigmaldan kelib chiqib, kelajak avlod uchun vorislik sifatida milliy, shaxsiy va diniy xususiyatlardan bilan tarkib topib boraveradi”[3;99-b.]. Axloqiy ideal milliy fundamental qadriyat va ideallarni umuminsoniy imperativlar bilan uyg‘unlashtirib, yangi shakllanib kelayotgan global qadriyat, ideallar olamida transformatsiyalarni amalga oshiradi.

Hozirgi paytda axloqiy ideal yoshlarga nisbatan milliy g‘oyani, milliy o‘zlikni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzu-umid, maqsadlarini anglatish, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad – uchinchi Renessansni amalga oshirish vazifasini ifoda etishi zarur.

Tadqiqotning usullari. Mamlakatimizda yangi ma’naviy makon yaratilish uchun katta ko‘lamdagi islohotlar olib borilar ekan, eng avvalo komil insonni tarbiyalash konsepsiyasining huquqiy bazasi (jismoniy-ruhiy, ma’naviy-ma’rifiy, ma’naviy-axloqiy) shu asosda axloqiy tizimi (sog‘lom turmush tarzi, barkamol-bilimli avlodni voyaga yetkazish, komil insonni shakllantirish) tarkib topmoqda va barcha ta’lim-tarbiya faoliyatida metodologik asosga aylandi. Shuningdek,

tadqiqotda qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli tahlil, sotsiologik so‘rovnama kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Yoshlarni vatanpavarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ularning qalbiga gumanizm, insoniylik fazilatlarini payvand qilishda milliy xususiyatga ega axloqiy ideal shakllanishi lozim. Tadqiqotchi A.Samadovning fikricha, “axloqiy ideal ichki tizimida ko‘rsatilgan omillar orasida inson tafakkurining rivoji, inson ongi va uning tabiat, jamiyat va inson haqidagi bo‘lajak maqsad va vazifalar haqidagi bilimi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun axloqiy ideal tizimi inson ruhiyatini belgilovchi xotira, bilgan, ko‘rgan, his qilingan bilimgina emas, balki bilishi mumkin bo‘lgan, insonni unga tomon chorlovchi va rag‘batlantiruvchi ichki ma’naviy-axloqiy kuch sifatida ham amal qiladi” [3:97-b.]. Ayni paytda hozirgi axloqiy ideal Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turuvchi, o‘zimizni ulug‘ ajodolarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilishga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ohib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan axloqiy g‘oyalalar tizimi bo‘lishi kerak.

Binobarin, yoshlarni milliy, umuminsoniy jihatlar bilan birga qamrab olayotgan zamonaviy “axloq” jamiyat mafkurasiga katta ta’sir o‘tkazmoqda. Aslida mafkura mohiyat va maqsadi jihatidan ijtimoiy idealni ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lida mazmunan birlashtiradi, ideal shakllarning (ijtimoiy, siyosiy axloqiy, estetik) qaror topishida keng imkoniyatlar yaratadi [8]. Mafkura g‘oyalarni birlashtiruvchi kuch bo‘lsa, ideal ham g‘oyalarni mukammal birlashtiruvchi, yig‘uvchi xususiyatga egadir.

Agar jamiyat mafkurasi muayyan g‘oyalalar tizimidan tashkil topishini nazarda tutsak, yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi qanday jamiyat qurmoqchi ekanligimiz, yangi ma’naviy makonni qanday tasavvur etishimiz bilan bog‘liq g‘oyalarga borib taqaladi. Yangi ma’naviy makoni “.....Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir” [1:276-b.].

Chunki o‘z milliy g‘oyasiga, muayyan jamiyat taraqqiyotining falsafiy-metodologik asosiga ega bo‘lmagan jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘yadi. Nemis mumtoz falsafasi vakili I.Kantning fikricha, “g‘oya yo‘nalish bersa, ideal inson tafakkurining keljakdagi ufqlarini belgilab beradi”[4:465-b.]. Bundan tashqari, har qanday ezgu niyat ham inson ongidan chuqur o‘rin egallamasa, inson tafakkuri shu niyatga hamohang o‘zgarmasa, barcha sa‘y-harakatlar bekor bo‘ladi. Shuning uchun yangi ma’naviy makonni orzu qilgan xalq o‘z axloqiy idealiga ega bo‘lishi kerak. Ammo xalq va jamiyat yangi ufqlarni ko‘zlagan ekan uning maqsadi ham aniq bo‘lishi, bu maqsadlarni amalga oshirishda puxta va izchil o‘ylangan, milliy qadriyatlar va ideallarni izchil amalga oshirishga qaratilgan milliy g‘oya zarurdir.

Yangi O‘zbekiston uchun milliy g‘oya ko‘p millatli xalqning ma’naviy ehtiyojlarini o‘zgarmas manbai hisoblanib, yangi ma’naviy makonni yaratishga hissasini qo‘sishi, ijtimoiy-tarixiy jihatdan shakllanib kelgan milliy orzu-intilish, maqsadlarni yaxlit axloqiy idealga jamlashi, O‘zbekiston jamiyatidagi barcha millat, elatlarga xos bo‘lgan xususiyatlar, urf-odatlar, an’analar qadriyatlar va ideallarni umumiy maxrajga keltirishi kerak. Ana shu shakllanishi kerak bo‘lgan yangi ma’naviy makonning tadrijiyligini hisobga olsak, milliy g‘oya xalqimizning o‘zligini anglashga, o‘z milliy-ma’naviy qadriyatlarini, axloqiy fazilatlarini tiklab, saqlab, e’zozlab kelajak avlodga transformatsiya qiluvchidir.


Axloqiy ideal milliy g‘oya va uning tamoyillari tufayli odamlar tasavvurida oydinlashadi, odamlarni ezgulik, olıyanoblik, buyuk kelajak va tinchlik yo‘lida birlashtirib, ularni mehr-muhabbat va yaxshi hayotga bo‘lgan intilishlariga safarbar etadi [6].

Inson tabiat shunchalik murakkabki, uning qalbida bunyodkorlik g‘oyasi, xohishi va maqsadining paydo bo‘lishi, amal qilishi ham bevosita mazkur shaxsnинг qanday g‘oyalar, qarashlar va ideallar bilan qurollanganiga bog‘liq [6]. Shuning uchun yoshlarda bo‘lishi mumkin bo‘lgan nomaqbtlari qo‘zg‘atuvchi barcha mafkuraviy tahdidlardan ogoh bo‘lmoq kerak. Mafkuraviy buzg‘unchilik beozor ko‘rinishda yoki biror madaniyat, san’at namunasi niqobida paydo bo‘lishi mumkin. Milliy-axloqiy qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan holatlarni namoyish etish uchun zamonaviy texnologiyadan foydalanish oqibatlari ham dahshatlidir. Olima Z.Boytemirovaning fikricha, “g‘oyadagi axloqsizlik shaxs tafakkuri, insoniy prinsiplarga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatadi, insonni tanazzulga yetaklaydi. Bunday shaxslar jamiyat va odamlarga munosabatda yakkalanib qoladi, ikkiyuzlamachilik qilishga o‘rganadi”[5;61-b.]. OAV va internet media vositalarida namoyish etiladigan turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlik, axloqsizlikka doir video mahsulotlari shular jumlasidandir.

Natijalar. Ezgulikni targ‘ib qilish, o‘rnak va ibrat bo‘lish qanchalik qiyin bo‘lsa, yoshlarda yomonlikni qabul qilish va unga taqlid qilish xohishi ham shunchalik tezkor bo‘lishi tabiiydir. Bu muammolarni ko‘lamini aniqlash maqsadida yoshlar o‘rtasida sotsiologik so‘rovnomada o‘tlazildi (so‘rovnomada 500 ta respondent qamrab olindi). O‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomada respondentlar “Aytinchi, yosh avlodning axloqiy madaniyati rivojlanishiga to‘sinqil qilayotgan muammo va yechimlar nimalar bo‘lishi mumkin?” degan savolga “mafkuraviy tahdidlar” muammosini 41,1 foizda belgilashgan. Yechimi sifatida respondentlar oiladagi muhit va sharoitlar (58,4%), o‘rtoq va do‘sstar muhiti (44,3%) deb ko‘rsatishgan. (1-rasm.)

Aytinchi, yosh avlodning axloqiy madaniyati rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan muammo va yechimlar nimalar bo'lishi mumkin? 2-3 ta javob varianti berilishi mumkin.

185 ответов



1-rasm - Aytinchi, yosh avlodning axloqiy madaniyati rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammo va yechimlar nimalar bo'lishi mumkin?

Badiiy-estetik ijod paydo bo'libdiki, ijobiy qahramonlar yuksak axloqiy ideallar ifodasi sifatida, salbiy qahramonlar tubanlik, razolat va jaholat timsoli sifatida idrok etilgan. Ijodkor o'z asarida yuksak ideallarni madh qilib, qahramonlari obrazini ham shu yuksaklik asosida quradi. Tabiiylik va badiiy sun'iylik farq qilishi tabiiy, lekin g'oyani ideallarni ma'nosi-mazmunisiz kelajak avlodga berib bo'lmaydi va bu qonuniyatdir. Sun'iy tarzda yoki biror mafkurani talablari asosida g'oyalar ideallashtirlishi bu vaqtincha, shu tuzumni umri tugaguncha bo'lishi mumkin. Axloqiy idealni-ijobiy qahramonni bunday sun'iy ideallashtirishga mutlaqo qarshiman, deydi Birinchi prezidentimiz Islom Karimov: "Zamonaviy, ijobiy qahramon haqida gapirganimda, kimni tasavvur qilaman? Oddiy odam, oddiy insonni! U hayotda xato qilishi mumkin, hayotni noto'g'ri tushunishi mumkin, hayotga munosabati har xil bo'lishi mumkin. Aytaylik, turli toifalarga noma'qul bo'lishi mumkin. Lekin men nimani xohlardim? Ijobiy qahramon, avvalo, yurt taraqqiyoti, el-yurt taqdiri, yurt tinchligi, xalq farovonligi, dunyoda o'zbek millati, o'zbek xalqi, umuman yurtimiz hech kimdan kam bo'lmasdan yashashi uchun jonbozlik, kerak bo'lsa fidoiylik ko'rsatishi kerak. Inson hech qachon yuz foiz ijobiy bo'lmaydi. Zamonaviy qahramon oramizda yurgan, oramizda bugun hayot kechirayotgan yosh yigit-qizlarning ibrati orqali ko'rsatiladi, mana shunday murakkab hayot, murakkab turmush qahramonlarni tug'diradi. Bizga afsonaviy qahramon emas, zamonaviy qahramon kerak..." [2;341-342-b.]. Ana shunday zamonaviy qahramon-oddiy odam, oddiy insonning axloqiy ideali ham afsonaviy yoki g'ayri tabiiy emas, bevosita shaxs, millat va jamiyat hayoti, ehtiyojlarining ramzi sifatida gavdalananadi. Bunday odamlarning axloqiy idealining amalga oshishi va barqarorligi uning hayotiy maqsad va orzularining ifodasi bo'ldi.

Bugungi kunda geomafkuraviy, geoiqtisodiy dunyoviy tartibotlar, bir qutbli dunyodan ko‘p qutbli dunyoga o‘tishga intilish vaziyatida soxta shior yoki beozorgina tuyulgan, ammo ichichidan g‘arazli maqsadlar ko‘zlangan kichkina xabar ham ulkan ziyon keltirishi mumkin. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, qotillik, firibgarlik, individualizm, egoizm, shaxsiyatparastlik, didsizlik, g‘oyasizlik, mas’uliyatsizlik singari g‘oyalar turli badiiy usullarda tarqatilmoqda. Bu narsa, o‘z navbatida, yoshlarni sog‘lom hayot sur’ati va milliy ma’naviy qadriyatlardan chetlashtirishga, ruhiy beburdlikka, chin insoniy axloqiy ideallardan uzoqlashishga olib keladi.


Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda xalqning azaliy ezgu va go‘zal axloqiy qadriyatlardan chetga chiqib ketmaslik uchun dunyo voqealariga ochiq ko‘z bilan qarash va hushyor bo‘lish, ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish har qachongidan ko‘ra dolzarb muammoga aylandi. Ayniqsa yoshlar ongi, tafakkuri va idealida ikkilanish, tahdid va esankirash alomatlarining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bunday dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot- kommunikatsiya manzarasida mafkuraviy kurashlar keskin tus olgan vaziyatda fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan yuksak axloqiy ideallar asosida kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi yoshlarimiz global jarayonlarda o‘z axloqiy ideali haqida aniq va to‘g‘ri tasavvur qilishlari, o‘z xalqining milliy tarixi, ma’naviy-axloqiy boyliklari, ota-bobolarining muqaddas imon-maslagiga bo‘lgan sadoqatini kuchaytirishlari, axloqiy immunitetni, yot g‘oyalarga nisbatan qarshilik ko‘rsatadigan botiniy ma’naviy salohiyatlarni kuchaytirishlari lozim. Aynan shu ma’noda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma yoshlar auditoriyasini qamrab oldik.

Yoshlarning axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini o‘rganishga oid sotsiologik tadqiqotlarimizda “Siz uchun axloqiy ideal (namuna) nima?” degan savolga respondentlarning 58,9 foizi axloqiy ideal deganda halol inson, komil inson sifatlarini, 49,2 foizi yaqin eng yaxshi fazilatlarning majmuini, 41,1 foizi o‘zini o‘zi takomillashtirish orqali yuksak narsaga intilishini tushunishlarini aytib o‘tishgan.(2.2-rasm.). Ularning aksariyati “Sizga hayotingizda kimlar axloqiy ideal (namuna) bo‘la oladi?” degan savolga ota-onam (73 %) va Vatani ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘sha oladigan mard, jasur, bilimdon kishilar (41,6%) deb aniq ko‘rsatganlar. “Sizning “kumiringiz (ilealingiz)” kim (qaysi faoliyat sohasida)?” .degan keyingi savolda esa, tadbirkorlik (31,4%), sportchilar (28,1%), siyosatchilar (10,8%) (2.3-rasm.) sohalari ustunlik qilgan.

Siz uchun axloqiy ideal (namuna) nima? 2-3 ta javob varianti berilishi mumkin


185 ответов



2.2-rasm. “Siz uchun axloqiy ideal (namuna) nima?”

Sizning “kumiringiz (idealingiz)” kim (qaysi faoliyat sohasida)?

185 ответов



2.3-rasm. “Sizning “kumiringiz (idealingiz)” kim (qaysi faoliyat sohasida)?”

Tadqiqotning natijalariga ko‘ra, ideal yoshlar axloqiga nisbatan belgilovchi, yo‘naltiruvchi vazifasini bajarib turibdi. Lekin ma’naviy-axloqiy sohada tektonik siljish kuzatilmoqda. Yoshlar ideallarini moddiylikni ro‘yobida, farovonlikda ko‘rmoqdalar.

Xulosa. Yoshlarning ma’naviy borlig‘ida axloqiy ideal takomillashtirilsa, ular milliy o‘zligini anglaydigan, dunyo voqealarini teran tushunadigan, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan shaxslar bo‘lib yetishadilar. Bunday shaxslarga har qanday aqidaparast, ekstremist va “ommaviy madaniyat” tarzida chiroylar qog‘ozlarga, bejirim shiorlarga burkab beriladigan g‘arazli g‘oyalalar, bema’ni da’vatlar ta’sir eta olmaydi. Demak, bilim, iymon, e’tiqod, ma’rifat va yuksak axloqiy ideal buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashda yoshlarimiz ongi va qalbi uchun mustahkam qalqon vazifasini o‘taydi. Shuningdek, xudbinlik, loqaydlik, beparvolik, qarindoshurug‘chilik, mahalliychilik, ichiqoralik, baxillik va hasadgo‘ylik singari illatlardan forig‘ bo‘lishga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy ideal mazmun-mohiyatini endi milliy va umumbashariy ma'naviy (ezgulik), demokratik qadriyatlar (haqiqat) va insonni yashash makoniga etikalologik (go'zallik) munosabatlari belgilamoqda. Axloqiy ideal erkin, o'zligini anglagan insonning ma'naviy pokligi va yuksakligini, iymon-e'tiqodi va dunyoqarashining mustahkamligini, niyatlarining milliy manfaatlar bilan uyg'unligini vijdon amri-yashash mezoni ekanligini ifodalaydigan qudratli botiniy kuchga aylandi. Bu fikrlar axloqiy ideal xususida metodologik ahamiyatga molik xulosalar chiqarishga asos bo'ladi:

birinchidan, yoshlar hayotda ezgu niyat, yaxshi orzular bilan yashaydi, o'z mehnatining istiqboli, o'z axloqiy kamoloti haqida qayg'uradi. Bunga erishish yo'llari har xil. Kimki pok luqma bilan, porloq tuyg'ular bilan, mustaqil iymon-e'tiqod bilan farzand tarbiyalasa, buning natijasi ezgulik va olivjanoblik bilan mukofotlanadi;

ikkinchidan, yashashdan ma'no, mazmunni turlicha tushunish odamzodga xos xususiyat. Ammo "hayotning mazmuni nimadan iborat?" degan savol dilemma, bahsli mavzudir. Bu savolga javob tarzida ba'zi odamlar ideali kundalik ikir-chikirlar yoki kayfu-safo bilan o'ralashib qolsa, kimlarnidir inson va jamiyat bilan bog'liq katta muammolarni qamrovchi ideallar qiziqtiradi. Kimning axloqiy ideali qandayligiga qarab uning yashashdan maqsadi va baxt-saodat haqidagi tasavvuri shakllanadi, inson hayotdan o'z o'rnini topishga intiladi;

uchinchidan, har bir insonning yashashdan maqsadi-baxtga erishish va baxtiyor bo'lishdir. Binobarin, sabr-bardoshli, iymon-e'tiqodi mustahkam, olivjanoblik va ezgulikni o'ziga kasb aylagan, odamlar ko'ziga pok vijdon bilan boqadigan, so'zi ham, o'zi ham pok bo'lib, halol mehnat qiladigan, millat va jamiyat manfaatlariga ustuvor ma'naviy vazifa sifatida qaraydigan, kelajakni bugundan yaratadigan yuksak ma'naviy ideallar bilan yashaydigan inson – komil insondir;

to'rtinchidan, axloqiy ideal yosh avlod ongi va qalbini ezgu g'oyalar, yuksak maqsad va niyatlar bilan ta'minlovchi, to'ldiruvchi tafakkur va vijdon ramzidir. Axloqiy ideal tarbiya jarayonida g'oyaviylikni, axloqiy imperativ timsollari bo'lmish vijdon, iymon, iroda, e'tiqod singari milliy axloqiy g'oyalarni belgilab olishda botiniy kuch vazifasini o'taydi;

beshinchidan, mamlakatimizda yangi ma'naviy makon yaratilish uchun katta ko'lamdagi islohotlar olib borilar ekan, eng avvalo komil insonni tarbiyalash konsepsiyasining huquqiy bazasi (jismoniy-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy) shu asosda axloqiy tizimi (sog'lom turmush tarzi, barkamol-bilimli avlodni voyaga yetkazish, komil insonni shakllantirish) tarkib topmoqda va barcha ta'lim-tarbiya faoliyatida metodologik asosga aylandi;

oltinchidan, yoshlarni tarbiyalash tizimida axloqiy idealga bir qator inson dunyoqarashi bilan bog'liq jismoniy, ruhiy, axloqiy-estetik va ijtimoiy-siyosiy talablar qo'yiladi. Bu talab va

ehtiyojlar ichida yoshlar qalbi va ongiga yuksak axloqiylik, yangi O‘zbekiston axloqiy ideali tamoyillariga e’tiqod, yashashning mazmun-mohiyatini singdirish asosiy o‘rinni egallaydi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Karimov I.A. Vatanimiz ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. 9-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 440 b.
3. Samadov A.R. Philosophical Analysis of the synthesis of Morality and Aesthetics in Spiritual Life //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – T.2. – №3. – C.1-7.
4. Кант И. Критика чистого разума. – М.: Финикс Ростов-на-Дону, 1999. – 672 с.
5. Boytemirova Z.D. Shaxs axloqiy ehtiyojlarini shakllanirish omillari: falsafa fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2009. – 141 b.
6. Eshonkulova N.A., Yusupova F.Z. Phenomena Of Happiness In Philosophy And The Meaning Of Life //Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal. – 2023. – T. 10. – №. 1. – C.3944-3948.
7. Юсупова Ф.З. Конструктивная связь нравственно-эстетической культуры и нравственного идеала молодежи // Электронный журнал Научные исследования в Кыргызской Республике. – Бишкек, 2023. 4 квартал. – №4. – С.80-90.
8. Yusupova F.Z., Eshonkulova N.A. Ideal And Values As The Expression Of The Aspiration Of The Human Towards Spiritual Perfection// Boletin De Literatura ral - The Literary Journal, 10(1), Vol. 10 No. 1 (2023). Pg no: 3939-3943. ISSN: 2173-0695 (Scopus).